

## **O'QUVCHILARDA NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (KICHIK EPIK ASARLAR ASOSIDA)**

*Fazilova Feruza Elbekovna*

*Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi*

*feruzafazilova50@gmail.com*

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada o'quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda kichik epik asarlarning ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Ona tili va adabiyot darslarida badiiy asarlardan foydalanish o'quvchilarning nutqini rivojlantirishda muhim ekani ko'rsatib beriladi. Maqolada Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasi misol sifatida keltiriladi.

*Kalit so'zlar:* nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya, kichik epik asar, hikoya, nutq madaniyati, badiiy adabiyot.

## **МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ (ПО МЕЛКИМ ЭПИЧЕСКИМ ПРОИЗВЕДЕНИЯМ)**

*Фозилова Феруза Элбековна*

*студентка Самаркандского государственного педагогического института*

*Аннотация.* В данной статье рассматривается значение малых эпических произведений в развитии речевой и лингвистической компетенции учащихся. Показано, что использование художественных произведений на уроках родного языка и литературы способствует развитию речи учащихся. В качестве примера рассматривается рассказ «Бемор» писателя Abdulla Qahhor.

*Ключевые слова:* речевая компетенция, лингвистическая компетенция, малые эпические произведения, рассказ, культура речи, художественная литература.

## METHODOLOGY FOR DEVELOPING SPEECH COMPETENCE IN STUDENTS (BASED ON SMALL EPIC WORKS)

*Fozilova Feruza Elbekovna*

*student of the Samarkand State Pedagogical Institute*

**Annotation.** *This article discusses the importance of small epic works in developing students' speech and linguistic competence. It is shown that the use of literary works in the mother tongue and literature lessons plays an important role in improving students' speech skills. The short story "Bemor" by Abdulla Qahhor is given as an example in the article.*

**Keywords:** *speech competence, linguistic competence, small epic work, short story, speech culture, literature.*

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Til insonning fikrlashi, muloqot qilishi va jamiyatda o'z o'rnini topishida asosiy vosita hisoblanadi. Ona tili va adabiyot darslarida badiiy adabiyotdan foydalanish o'quvchilarning nutqini rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa, kichik epik asarlar o'quvchilar uchun tushunarli bo'lgani sababli ular orqali tilni o'rganish osonroq bo'ladi. Bu borada muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarning kitob o'qishi muhim ekanini ta'kidlab shunday degan: "Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tanitadigan buyuk avlodni tarbiyalamoqchi bo'lsak, avvalo farzandlarimizni kitob o'qishga o'rgatishimiz kerak." Nutqiy kompetensiya insonning o'z fikrini og'zaki yoki yozma shaklda tushunarli qilib ifoda eta olish qobiliyatidir. Lingvistik kompetensiya esa til qoidalarini bilish va ularni to'g'ri qo'llay olishni anglatadi.

Kichik epik asarlar o'quvchilarning nutqini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Hikoyalar qisqa bo'lgani uchun o'quvchilar ularni oson o'qiydi va mazmunini tez tushunadi. O'quvchilar hikoyani o'qib bo'lgach, voqealarni qayta hikoya qiladi va o'z fikrini aytishga harakat qiladi. O'zbek adabiyotida hikoya janrida

mashhur ijodkorlardan biri Abdulla Qahhor hisoblanadi. Uning hikoyalari sodda va hayotiylik bilan ajralib turadi.

Yozuvchining “Bemor” hikoyasida oddiy oila hayoti va bemor ayolning og‘ir ahvoli tasvirlangan. Hikoyada insoniy mehr-oqibat va hamdardlik kabi fazilatlar ko‘rsatib beriladi. Bunday hikoyalarni o‘qish o‘quvchilarning fikrlashini rivojlantiradi. Ular voqealarni tushunishga harakat qiladi va o‘z fikrini bayon qilishga o‘rganadi. Shu orqali o‘quvchilarning nutqi rivojlanadi va so‘z boyligi ortadi. Xulosa qilib aytganda, kichik epik asarlar o‘quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bunday asarlar orqali o‘quvchilar yangi so‘zlarni o‘rganadi, voqealarni tushunadi va o‘z fikrini aytishga harakat qiladi.

Ayniqsa, Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi o‘zining sodda va hayotiy mazmuni bilan o‘quvchilar uchun foydali hisoblanadi. Shu sababli ta’lim jarayonida bunday asarlardan foydalanish muhim hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abdulla Qahhor. Tanlangan asarlar. 3-jild. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
2. Naim Karimov. O‘zbek hikoyachiligi tarixi. Toshkent: Fan, 1999.
3. Aziz Qo‘shjonov. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O‘zbekiston, 1995.